

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-mart oylarida Farg'on'a viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 9 261,2mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 5,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 114,7 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'on'a viloyatining qo'shgan hissasi 5,8 %ga yetdi.

### Yalpi hududiy mahsulot


	mlrd. so'm		2021-yil yanvar–mart oyiga nisbatan, % hisobida
	2021- yil	2022- yil	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>7 673,5</b>	<b>9 261,2</b>	<b>105,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 389,8	8857,9	105,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	283,7	403,3	107,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan</b>	<b>7 389,8</b>	<b>8857,9</b>	<b>105,1</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 376,9	1 677,3	103,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	<b>2 357,0</b>	<b>2 849,2</b>	<b>106,8</b>
sanoat	<b>1 790,</b>	<b>2 166,7</b>	<b>106,6</b>
qurilish	567,0	682 ,5	107,3
<b>Xizmatlar</b>	<b>3 655,9</b>	<b>4 331,4</b>	<b>104,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish	<b>779,3</b>	<b>896,7</b>	<b>103,7</b>
tashish va saqlash, axborot va aloqa	<b>565 ,0</b>	<b>662,6</b>	<b>112,3</b>
boshqa xizmat tarmoqlari	2 311,6	2 772,1	102,9

*Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi  
bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident –  
institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.  
YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi  
qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali  
hisoblanadi.*

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,6 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,4 %ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 18,9 %ni, sanoat tarmog'i 24,5 %ni, qurilish 7,7 %ni va xizmatlar sohasi 48,9 %ni tashkil qildi.

### **2022- yilning yanvar–martda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari**




YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiyligi o'sishsur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 18,9 %), sanoatda – 106,6 % (24,5 %), qurilishda – 107,3 % (7,7 %), xizmatlar sohasida – 104,5 %ni (48,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 103,7 % (10,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,3 % (7,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,9 % dan (31,3 %) iborat bo'ldi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi**  
*(yanvar–dekabr holatiga, jamiga nisbatan %da)*




Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 10,1 %ni (2021-yil – 10,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 7,5 %ni (7,6 %), xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 31,3 %ni (31,4 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi**  
*(yanvar–dekabr, jamiga nisbatan %da)*



2022- yilning yanvar-mart oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 2 371,7 ming so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning (2 005,1 ming so'm) mos davriga nisbatan 3,1 %ga o'sdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 59,4 %ni tashkil qildi.

### **YaHMda kichik biznesning ulushi** (yanvar-mart oylari, jamiga nisbatan %da)



### 2022- yilning yanvar-martda YaHM ning deflyator indeksi bo'yicha o'sish sur'atlari (%)

